

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227




IJTIMOIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 8

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

GILAMDO'ZLIK TERMINLARINING LEKSIK-SEMANTIK TAHLILI

Ibragimova Nodira

Termiz davlat universiteti, doktorant.

e-mail: nodiraibragimova948@gmail.com ORCID: <https://orcid.org/0009-0003-6561-5428>

Annotatsiya.

Mazkur maqolada o'zbek tilidagi gilamdo'zlik terminologiyasining ma'no xususiyatlari lingvistik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Maqolada gilamdo'zlikka oid terminlarning semantik tuzilishi, ular orasidagi ma'no munosabatlari (sinonimiya, polisemiya, omonimiya kabi hodisalar), shuningdek, terminlarning shevalararo va tarixiy taraqqiyot jarayonidagi o'zgarish xususiyatlari yoritiladi. Olingan natijalar gilamdo'zlik terminologiyasining boy va sarmahsul soha ekanligini, uning umumxalq tilidan farqli o'ziga xos xususiyatlarga ega ekanligini ko'rsatadi. Maqola natijalari o'zbek tilshunosligida soha terminologiyasini o'rganish, lug'atlar tuzish hamda etnolingvistik tadqiqotlar uchun amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: gilamdo'zlik, termin, semantika, leksik-semantik guruh, xalq amaliy san'ati, *qo'chqor shoxi*, *to'qimoq*, *tugun bog'lamoq*.

ЛЕКСИКО-СЕМАНТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ТЕРМИНОВ КОВРОТКАЧЕСТВА

Ибрагимова Нодира

Термезский государственный университет, докторант.

Аннотация.

В статье с лингвистической точки зрения анализируются семантические особенности терминологии ковроткачества в узбекском языке. Рассматриваются семантическая структура терминов ковроткачества, смысловые отношения между ними (синонимия, полисемия, омонимия и другие явления), а также особенности изменения терминов в междиалектном и историческом развитии. Полученные результаты показывают, что терминология ковроткачества представляет собой богатую и продуктивную область лексики, обладающую специфическими особенностями, отличающими её от общеупотребительного языка. Результаты исследования имеют практическое значение для изучения отраслевой терминологии в узбекском языкознании, составления словарей и проведения этнолингвистических исследований.

Ключевые слова: ковроткачество, термин, семантика, лексико-семантическая группа, народное прикладное искусство, *qo'chqor shoxi*, *to'qimoq*, *tugun bog'lamoq*.

LEXICAL-SEMANTIC ANALYSIS OF CARPET-WEAVING TERMINOLOGY

Ibragimova Nodira

Termez State University, Doctoral Student.

Abstract.

This article analyzes the semantic features of carpet-weaving terminology in the Uzbek language from a linguistic perspective. It examines the semantic structure of carpet-weaving terms, the semantic relationships among them, including synonymy, polysemy, and homonymy, as well as changes in terminology across dialects and throughout its historical development. The findings demonstrate that carpet-weaving terminology constitutes a rich and productive lexical domain with distinctive features that differentiate it from general language. The results of the study have practical significance for the investigation of specialized terminology in Uzbek linguistics, dictionary compilation, and ethnolinguistic research.

Keywords: carpet weaving, term, semantics, lexical-semantic group, folk applied arts, *qo'chqor shoxi*, *to'qimoq*, *tugun bog'lamoq*.

Kirish. O'zbek xalq amaliy san'atining eng qadimiy va serqirra turlaridan biri bo'lgan gilamdo'zlik san'ati asrlar davomida shakllanib, o'ziga xos boy terminologik tizimni vujudga keltirgan. Gilamdo'zlik bilan bog'liq holda yuzaga kelgan leksik qatlam nafaqat ushbu hunarning texnologik jarayonlarini, balki xalqning estetik didi, ramziy tafakkuri va moddiy madaniyatini ham til vositasida ifodalaydi. Shu bois gilamdo'zlik terminlarini leksik-semantik jihatdan o'rganish o'zbek tilshunosligi uchun dolzarb va istiqbolli yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Gilamdo'zlik leksikasi o'zida naqsh va shakl nomlarini, xomashyo va bo'yoq turlarini, asbob-uskunalar nomlarini, to'qish usullari va texnik amallarni ifodalovchi keng qamrovli so'z boyligini mujassam etadi. Ushbu terminlarning katta qismi umumiste'mol so'zlarning ma'no ko'chishi natijasida yoki mahalliy shevalar asosida shakllangan bo'lib, ularning semantik tuzilishini tahlil qilish leksik semantika nazariyasini boyitish bilan birga, xalq amaliy san'atining tilda aks etish xususiyatlarini ham yoritishga xizmat qiladi.

V. G. Moshkova [1] tomonidan olib borilgan dastlabki tadqiqotlar turkman gilamlaridagi sakkiz burchakli medalyon

naqshining qadimiy kelib chiqishini yoritib berdi. U ushbu naqshni IX-XI asrlarda yashagan o'g'uz qabilalari an'analari bilan bog'lab, ularning keyinchalik turkmanlar va boshqa Markaziy Osiyo xalqlari bilan assimilyatsiyalashganini ko'rsatdi. Shuningdek, Moshkova Nurota turkmanlariga xos *kalkannusxa* naqshini o'rganib, uning Kaspiyorti turkmanlari naqshlari bilan o'xshashligini ta'kidlagan va bu o'xshashlikni Markaziy Osiyo xalqlari o'rtasidagi tarixiy aloqalarni ochib beruvchi muhim ilmiy dalil sifatida baholagan. A. Felkerzam [2] XX asr boshlarida *oq-enli* gilam namunalarini tasvirlab, qo'ng'irotlar *oy-nusxa* medalyon naqshini turkmanlardan o'zlashtirgan bo'lishi mumkinligini ilgari surgan. B. X. Karmisheva esa ersari turkman qabilalari bilan laqay xalqi o'rtasidagi uzoq muddatli o'zaro ta'sir va aralashuv jarayonlarini o'rganib, janubiy Tojikiston va shimoliy Afg'oniston hududlarida madaniy almashinuvning aniq misollarini keltirgan. So'nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlar ushbu ilmiy asosni yanada boyitdi. E. Tsareva [3] o'g'uz qabilalarining gilamchilik an'analari *gol* naqshining kelib chiqishini tahlil qilgan bo'lsa, S. Melikova [4] Ozarbayjon gilam muzeylari kolleksiyalarida ushbu naqshning turli variantlarini aniqlagan. L. Kerimov [5] esa medalyon naqshining Yaqin Sharq, Markaziy Osiyo va Ozarbayjon amaliy san'atidagi muhim o'rnini ta'kidlab, uning turli hududlarda turlicha nomlanishini qayd etgan.

Tadqiqotchi olim S. Ibrohimovning "Farg'ona shevalarining kasb-hunar leksikasi" nomli kitobida Farg'ona shevalaridagi kasb-hunar so'zlarining leksik xususiyatlari o'rganilgan. Ishda kasb-hunar so'zlari lisoniy tadqiq etilgan. Shuningdek, kasb-hunar nomlarining tarixiy ildizlari haqida ham fikr yuritilgan. "Adabiy tilimizni puxtalash va boyitish – ilmiy terminologiyani yaratishga ko'p jihatdan bog'liqdir" [6], deb ta'kidlab o'tadi tadqiqotchi. O'zbek tili lug'at tarkibida ba'zi unutilayotgan til elementlari, mavzuga doir til tarixidagi leksik-grammatik hodisalarga ham e'tibor qaratilgan. O'zbek tilshunosligida hunarmandchilik so'zlari haqida ayrim ilmiy ishlar, mulohazalar bildirilgan bo'lsa-da, bu mavzu monografik jihatdan maxsus o'rganilmagan. Ko'plab mahalliy va sheva xarakteridagi gilamdo'zlik terminlari jonli nutqdan asta-sekin iste'moldan chiqib, unutilish xavfi ostida qolmoqda. Bu holat mazkur leksik qatlamni ilmiy jihatdan tizimlashtirish, izohli lug'atlar yaratish va o'quv-uslubiy adabiyotlarga kiritish zaruratini yanada kuchaytiradi.

Hunarmandchilik mahsulotlarining o'ziga xosligi o'sha davrning madaniy o'ziga xosligi va farovonligini aks ettiradi [7]. Har bir to'qima matoga xos go'zallik har bir hudud madaniyatini o'zida yaqqol namoyon etadi [8]. Bundan ko'rinadiki, gilamchilik mahsulotlarining o'ziga xosligi hudud madaniyatini belgilovchi omil ekan. O'zbek tilidagi *adras* so'zini oladigan bo'lsak, "u oq mato, yo'l-yo'l gulli mato", ya'ni "o'rishi ipak, arqog'i esa ipdan bo'lgan, atlasga o'xshash, ammo qalinroq mahalliy gazlama"ni [9] anglatadi. Bu esa, o'z navbatida, faqat o'zbek yengil sanoatida uchraydigan milliy-madaniy mahsulotdir. *Olacha* so'zi "ingichka yo'lli, odatda, paxta ipidan, ba'zan ip va ipakdan to'qiladigan mato"ni [9] bildiradi. O'zbekistonda paxta yetishtirish va uni qayta ishlash, ipak va ipak mahsulotlari, jun mahsulotlari, ko'nchilik, ip-kalava, to'qimachilik mahsulotlari, yigirish kabi tarmoqlar rivojlangan bo'lib, shu tarmoqlarga oid leksika ham juda boy va rang-barangligi bilan ajralib turadi. O'zbekistonda to'qimachilik – yengil sanoatning yosh tarmoqlaridan biri, shu bois ham unga oid tushunchalarni leksemalar yordamida ifodalash tizimi hali shakllanib bo'lmagan. Biroq tarmoq rivojlangan sari uni ifodalovchi termin va atamalar ham boyib boradi. Bugungi kunda, masalan, bu tarmoqqa oid *ip-kalava*, *yigirish*, *trikotaj*, *to'quv dastgohi*, *arqoq* kabi so'zlar keng qo'llanilmoqda. Demak, soha rivojlangani sari yangi termin va atamalar yuzaga keladi.

Asosiy qism

O'zbek tilidagi gilamdo'zlik leksikasini tahlil qilish natijasida uni ma'no xususiyatlariga ko'ra bir necha yirik leksik-semantik guruhlariga ajratish mumkin. Ularni tasniflashda so'zlarning denotativ ma'nosi, gilamdo'zlik jarayonidagi vazifasi hamda simvolik-madaniy yuki asosiy me'zon sifatida olindi.

1. Naqsh va ornament nomlarini ifodalovchi leksika. Bu guruh gilamdo'zlik terminologiyasining eng boy va o'ziga xos qatlamini tashkil etadi. Bunga *qo'chqor shoxi*, *bodom*, *guldasta*, *islami*, *xurjun gul*, *chorbog'*, *tumor*, *mehrob*, *yulduzcha* kabi terminlar kiradi. Ushbu naqsh nomlarining aksariyati metaforik nomlanish asosida yuzaga kelgan: ular tabiat obyektlari (o'simlik, hayvon, samoviy jismlar) bilan gilam bezaklari orasidagi tashqi o'xshashlikka asoslanadi. Masalan, *qo'chqor shoxi* termini naqshning spiral shaklidagi burama chiziqlarini qo'chqor shoxiga o'xshatish orqali nomlangan, bu yerda metaforaning asosida shakl o'xshashligi yotadi. Bunday nomlanish usuli xalq tafakkurining obrazli-ko'rgazmali xususiyatini aks ettiradi va gilamdo'zlik leksikasini etnolingvistik jihatdan alohida qimmatli qiladi.

2. Xom ashyo va materiallarni bildiruvchi leksika. Bu guruhga *jun*, *ipak*, *paxta ip*, *tola*, *zig'ir tolasi*, *arg'amchi ip*, *yigirilgan ip* va boshqalar so'zlar kiradi. Bu qatlamda semantik farqlanish materialning kelib chiqish manbaiga (hayvon yoki o'simlik mahsuloti) hamda uning sifat-texnik xususiyatlariga (yupqa — qalin, mayin — dag'al: masalan, *jun-dag'al*, *qalin*; *ipak*-mayin, *yupqa*) asoslanadi. Bundan tashqari, bo'yoq va rang nomlarini ifodalovchi so'zlar ham (*qizil*, *qirmizi*, *gulobi*, *zangori*, *jigarrang*, *pistoqi*) shu guruh doirasida ko'rib chiqiladi, chunki ular gilam materialining muhim sifat belgisini bildiradi va ko'pincha tabiiy obyektnomlardan metonimik yo'l bilan yasalgan (masalan, "pistoqi rang" — pista mag'zining rangiga o'xshashlik asosida).

3. Gilamdo'zlik asboblari va uskunalarini ifodalovchi leksika. *Dastgoh*, *taroq*, *pichoq* (*gilamdo'zlik pichog'i*), *ilgak*, *mokidasta*, *shona* (*ipni mustahkamlovchi asbob*) kabi terminlar mazkur guruhni tashkil etadi. Bu so'zlarning semantik strukturasida "vosita", "qurol" ma'nosi yetakchi o'rin tutadi. Bir qator terminlar umumto'quvchilik leksikasi bilan umumiy bo'lsa-da (masalan, *dastgoh*, *mokidasta*), gilamdo'zlikka xos maxsus asboblari (masalan, tugun bog'lash uchun ishlatiladigan maxsus *pichoq* yoki *ilgak*) alohida terminologik birlik sifatida ajralib chiqadi, bu esa gilamdo'zlikning o'ziga xos texnologik xususiyatidan dalolat beradi.

4. To'qish jarayoni va texnik amallarni ifodalovchi fe'l-leksika. *To'qimoq*, *tugun bog'lamoq*, *kesmoq*, *taramoq*, *siqmoq*, *mahkamlamoq* kabi fe'llar ushbu guruhga kiradi. Bu fe'llarning ma'no tuzilishida harakatning izchilligi va texnologik jarayonning bosqichma-bosqichligi aks etadi. Xususan, vertikal holatda to'qiladigan gilamlarda "tugun bog'lamoq" termini gilamdo'zlikning asosiy texnik amalini ifodalovchi so'z birikmasi bo'lib, uning tarkibidagi "tugun" komponenti gilam to'qishning o'ziga xos texnologik birligini — tugun sonini — bildiradi, bu esa gilam sifatining muhim ko'rsatkichi

hisoblanadi.

5. Tayyor mahsulot turlarini ifodalovchi leksika. *Gilam, palos, joynamoz, xurjun, bug'joma, namat, napramach* kabi so'zlar mazkur guruhni tashkil etadi. Bu terminlarning semantikasida mahsulotning vazifasi (foydalanish o'rni), o'lchami va tayyorlanish texnologiyasi asosiy farqlovchi belgi vazifasini o'taydi. Masalan, "joynamoz" so'zi diniy vazifaga ega kichik hajmdagi gilam turini bildirsa, "palos" tugunsiz usulda to'qilgan yupqa gilam turini ifodalaydi — bu yerda semantik farqlanish texnologik belgiga asoslangan.

O'tkazilgan tahlil gilamdo'zlik terminologiyasining boy va ko'p qatlamli leksik-semantik tizim ekanligini ko'rsatdi. To'plangan til materiallari asosida aniqlangan terminlarni bir necha tematik guruhlarga ajratib o'tildi: xomashyo va materiallarga oid terminlar (jun, ip, tola, bo'yoq), texnologik jarayonni ifodalovchi terminlar (to'qish, ilmoq bog'lash, mahkamlash, kesish), asbob-uskunalarga oid nomlar (dastgoh, ilgak, taroq), naqsh va bezak elementlariga oid terminlar (gul, terma, medalyon, islimiy) hamda tayyor mahsulot turlarini bildiruvchi leksemalar. Bu tasnif terminologik tizimning ichki tuzilishi kasb faoliyatining texnologik bosqichlariga mos ravishda shakllanganidan dalolat beradi. Semantik jihatdan tahlil qilingan terminlarning katta qismi motivlashgan xarakterga ega, ya'ni ularning ma'nosi buyum yoki jarayonning tashqi belgisi, vazifasi yoki tashqi olamdagi predmetlarga o'xshashligi asosida yuzaga kelgan (masalan, naqsh nomlarining o'simlik va hayvonot olami leksikasi bilan bog'liqligi). Bu holat xalq amaliy san'ati terminologiyasi umumxalq tiliga chambarchas bog'liq holda rivojlanganini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, arabcha-forscha o'zlashmalar (*dastgoh, daroz, atlas, shoyi, chit, do'kon*), xususan, naqsh va bezak nomlarida, sezilarli o'rin tutadi, bu esa mintaqadagi hunarmandchilik an'alarining tarixiy-madaniy aloqalar zahirida shakllanganini anglatadi. Rus tili orqali kirib kelgan ba'zi texnik terminlar (*stanok, fabrika, kombinat, detal, model, motovilo, kraska, spitsa*)ning mavjudligi esa terminologiyaning zamonaviy davrda ham ochiq tizim sifatida rivojlanayotganidan dalolat beradi. To'quvchilik leksikasi rivojida ma'no ko'chishi (metafora) va yangi so'z yasalishi muhim rol o'ynagan. Masalan, moki so'zi dastlab asbob nomini bildirsa, keyinchalik harakat tezligini ifodalovchi ko'chma ma'nolarda ham qo'llanila boshlagan. Shuningdek, sohada affiksatsiya usuli bilan (masalan, to'quv+chi, ipak+chilik, nil+chi, gilam+do'z, ter+ma, gilam+chilik) yangi terminlar hosil qilish o'zbek tilining ichki imkoniyatlari hisobiga amalga oshirilgan. O'zbek to'quvchilik leksikasi oddiy xo'jalik terminlaridan murakkab professional terminologiya darajasigacha bo'lgan uzoq tarixiy yo'lni bosib o'tgan. Bu leksika o'zbek tilining lug'at boyligini nafaqat miqdoran, balki sifat jihatidan ham boyitib kelmoqda.

Gilamchilik leksikasida uchraydigan *palos, joynamoz, qur, bo'xjoma, terma gilam, qoqma gilam, napramach, xurjun, patli gilam, dastgoh, taroq, pichoq (gilamdo'zlik pichog'i), ilgak, mokidasta, shona, jun, ipak, paxta ip, tola, zig'ir tolasi, arg'amchi ip, yigirilgan ip, qo'chqor shoxi, bodom, guldasta, islimi, xurjun, gul, chorbog', tumor, mehrob, yulduzcha, to'qimoq, tugun bog'lamoq, kesmoq, taramoq, siqmoq, mahkamlamok* kabi so'zlar o'zbek tilining lug'at boyligini tashkil etadi. O'tkazilgan tadqiqot natijalari o'zbek tilidagi gilamdo'zlik terminologik tizimining boy, ko'p qatlamli va chuqur madaniy-simvolik mazmunga ega ekanligini ko'rsatdi. Ushbu leksik qatlam nafaqat gilamdo'zlik hunarining texnologik jarayonlarini, balki xalqning estetik didi, dunyoqarashi va ramziy tafakkurini ham til vositasida ifodalaydi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, gilamdo'zlik terminlarining ma'no xususiyatlarini sistemli tadqiq etish o'zbek tilshunosligida sohaviy terminologiyani o'rganish borasidagi ishlarni boyitadi, shuningdek, unutilish arafasida turgan xalq terminlarini ilmiy muomalaga qaytarish, ularni izohli va etnolingvistik lug'atlarga kiritish zaruratini yana bir bor tasdiqlaydi. Kelgusi tadqiqotlarda gilamdo'zlik leksikasini boshqa hunarmandchilik turlari terminologiyasi bilan qiyosiy o'rganish, shuningdek, naqsh nomlarining kognitiv-simvolik tabiatini chuqurroq tahlil qilish istiqbolli yo'nalishlardan biri bo'lishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Moshkova V. G. The Carpets of Central Asia People at the End of the XIX to the Beginning of the XX Century. – Tashkent: Fan, 1970. – 254 p.
2. Fel'kerzam A. Starinniye kovri Sredney Azii (okonchaniye). – Petrograd: Sirius, 1915.
3. Tsareva E. G. Kover kak istoricheskiy istochnik: k istorii formirovaniya khudozhestvennogo oblika i strukturnykh osobennostey turkmenskogo kovra XVI – nachala XX v. // Vestnik. – 2013.
4. Melikova Sh. Azerbaijan Carpet Museum. – Baku: ACM, 2017.
5. Kerimov L. G. Azerbayjanskiy kover. Tom II. – Baku: Gyanjlik, 1983.
6. Ibrohimov S. Farg'ona shevalarining kasb-hunar leksikasi. – Toshkent, 1959. – 5 b.
7. Suwannasorn K. Local Curriculum Development in Occupational and Technology Learning Subjects on the Invention of Rubber-Plated Flowers for Elementary School Students: Master of Education Thesis, Curriculum and Supervision. – Bangkok: Graduate School, Phranakhon Si Ayutthaya Rajabhat University, 2007.
8. Lapa R. Study of Silk Identity and Branding in the Lower Northeastern Provinces. – Teachers Council of Ladprao Printing House, 1993.
9. O'zbek tilining izohli lug'ati: 5 jildli / A. Madvaliyev tahriri ostida. – Toshkent: O'zbekiston nashriyoti, 2020. – T. 1. – B. 41–107.